

## O'pka tuberkulyozi bo'lgan bemor bolalarda klinik va epidemiologik tekshiruv usullari

**Xasanova Mohira Farxadovna**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

**Kirish.** O'pka tuberkulyozi dunyo miqyosida keng tarqalgan yuqumli kasallik bo'lib, ayniqsa, immuniteti sust bo'lgan bolalar orasida kasallanish ko'rsatkichi yuqori saqlanib qolmoqda. Bolalarda tuberkulyozning kechishi ko'pincha yashirin bo'lib, kasallikning aniqlanishi kechikishi mumkin. Shu sababli, bolalarda tuberkulyozni o'z vaqtida aniqlash va erta tashxis qo'yish uchun klinik va epidemiologik tekshiruv usullari muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot maqsadi.** O'pka tuberkulyozi bilan kasallangan bolalarda kasallikning klinik belgilari va epidemiologik xususiyatlarini aniqlash hamda diagnostik tekshiruv usullarining samaradorligini baholash.

**Material va usullar.** Tadqiqot doirasida o'pka tuberkulyozi tashxisi qo'yilgan 0-18 yoshdagi bolalar klinik, epidemiologik va laborator tekshiruvlardan o'tkazildi. Tekshiruv quyidagi usullar asosida olib borildi:

**Anamnestik ma'lumotlar yig'ish:** Bemorlarning oilaviy va ijtimoiy sharoiti, kontaktli holati o'rganildi.

**Klinik tekshiruv:** O'pka tuberkulyozi bilan kasallangan bolalarda asosiy simptomlar (isitma, yo'tal, vazn yo'qotish, holsizlik) qayd etildi.

**Laborator tekshiruvlar:** Mikroskopik tekshiruv va bakterial ekish usullari yordamida balg'amda Mycobacterium tuberculosis borligi aniqlangan, Immunodiagnostika: Mantou sinamasi o'tkazilgan.

**Instrumental tekshiruvlar:** Rentgenografiya orqali o'pka shikastlanishining turli shakllari o'rganilgan. Kompyuter tomografiya (KT) orqali aniqroq tashxis qo'yish imkoniyati baholanadi.

**Olingan natijalar.** O‘pka tuberkulyozi bilan kasallangan bolalarda klinik simptomlar aksariyat hollarda uzoq davom etuvchi yo‘tal, umumiy holsizlik, vazn yo‘qotish va kechki isitmalanish bilan namoyon bo‘ldi.

- Epidemiologik tahlil natijalariga ko‘ra, bolalarning aksariyati tuberkulyoz bilan kasallangan oila a‘zolari bilan kontaktda bo‘lishgani aniqlandi.

- Laborator tekshiruv natijalari shuni ko‘rsatdiki, Mantu sinamasi yuqori sezgirlikka ega bo‘lib, KT esa o‘pka shikastlanishining erta bosqichlarini aniqlashda muhim vosita ekanligi qayd etildi.

**Xulosa.** O‘pka tuberkulyozi bilan kasallangan bolalarda tashxis qo‘yishda klinik simptomlar bilan bir qatorda epidemiologik tekshiruvlar va zamonaviy laborator-instrumental usullar muhim ahamiyatga ega. Mantu sinamasi tashxis qo‘yishda samarali bo‘lib, kompyuter tomografiya tuberkulyozning kech bosqichlarini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Kelgusida bolalar orasida tuberkulyoz tarqalishini oldini olish uchun keng qamrovli skrining dasturlarini amalga oshirish lozim.

Research Science and  
Innovation House